

Date: 27th June-2025

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING JADIDCHILIK TARIXIDAGI
O'RNI VA ROLI

Husanova Sevara Zokir qizi

Navoiy davlat universiteti, Tarix fakulteti talabasi

husanovasevara20@gmail.com

Ilmiy rahbar: Quljonov Ilyos

Annotatsiya. Ushbu maqolada Munavvarqori Abdurashidxonovning jadidchilik harakatiga qo'shgan hissi, uning hayoti, asarlari va g'oyaviy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, u tomonidan ilgari surilgan fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyati va takliflari ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov asarlari, hayot yo'li, Turkiston jadidlari, jadidchilik, jadid maktablari, ma'rifiy faoliyat.

Аннотация. В данной статье освещается вклад Мунавваркори Абдурашидханова в джадидизм, рассматриваются его труды и жизненный путь. Также приведены его идейные взгляды, отраженные в произведениях, а также выводы и предложения, актуальные для сегодняшнего дня.

Ключевые слова: произведения Мунавваркори Абдурашидханова, жизненный путь, туркестанские джадиды, джадидизм, джадидские школы, просветительская деятельность.

Abstract. This article highlights the contribution of Munavvarqori Abdurashidkhanov to the Jadid movement, as well as his life and works. His ideological views expressed in his writings are also discussed, along with conclusions and suggestions relevant to the present day.

Keywords: Munavvarqori Abdurashidkhanov's works, life path, Turkestan Jadids, Jadidism, Jadid schools, educational activities.

KIRISH. O'zbekiston davlat va jamoat arbobi, Turkiston ma'rifatparvarlari va milliy ozodlik uchun kurash yo'l boshchisi, maorif qahramoni Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkent shahri Shayx Xovandi To'hir dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug'ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotboldixon Olimxon o'g'li, onasi esa Toshkentning mashhur ziyolilaridan biri Xonxo'ja Shorahimxo'jayevning qizi Xosiyat Otin (1845–1931) edi. Har ikkisi ham muallimlik qilib, yosh avlodga ta'lim berishgan. Munavvarqori uch farzandli oilaning kenja farzandi edi — akalari A'zamxon va Muslimxon. Otasi 1885-yilda vafot etadi, bu esa Munavvarqorining bolalik yillari murakkab tarixiy davrga to'g'ri kelganini ko'rsatadi. 1892-yil 24-iyunda boshlangan "Vabo qo'zg'oloni" vaqtida u bor-yo'g'i 14 yoshda edi[6]. U dastlabki ta'limni oilasida olib, keyinchalik Yunusxon o'g'li Dodxoh madrasasi va Buxorodagi madrasalarda tahsil olgan (1885–1890). Munavvarqorining dunyoqarashi Ozarbayjon, Tatar matbuotlari va ayniqsa Bog'chasaroyda chop etilgan "Tarjimon" gazetasini o'qishi natijasida kengaydi. U



Date: 27th June-2025

Toshkentda faoliyatini Mirzaabdullaboy masjidida imomlik va muallimlikdan boshlagan (1890). Xususiy o'qituvchidan rus tilini o'rganib, arab, fors va usmonli turk tillarini ham mukammal egallagan.

1901-yilda u Turkistonda birinchi yangi usuldagi maktabni ochdi. 1906-yilda "Taraqqiy" gazetasida muharrir bo'lib ishladi. 1907-yildan boshlab Qrim va Tataristondagi tajribalarga asoslangan holda maktab darsliklari tayyorladi. Bu darsliklar jumlasiga o'zbek tilidagi ilk alifbo kitoblari kiradi va ular tez orada barcha maktablarda foydalanila boshlandi. Ular Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" kitobi bilan birgalikda rus-tuzem maktablarida o'qitilgan[5].

Munavvarqori 1906-yilda "Xurshid" gazetasini tashkil etdi. 1903–1907-yillarda "Adibi avval" va "Adibi us-soniy" darsliklarini nashr etdi. 1908-yilda "Osiyo" va "Shuhrat" gazetalarida muharrirlik qildi. 1911-yilda Finlandiyaga sayohat qilib, davlat boshqaruvi tajribasini o'rgandi. 1914–1915-yillarda "Nashriyot", "Turkiston kutubxonasi" va "Umid" nashriyotlarini tashkil etdi. "Al-Isloh" jurnalining g'oyaviy rahbari lavozimida ishladi[3].

1917-yilda "Sho'roi Islom" tashkilotini tuzishda ishtirok etdi, Toshkent shahar dumasi a'zosi bo'ldi. "Najot" va "Kengash" gazetalarining mas'ul muharriri sifatida faoliyat yuritdi. "Ravnaq" kutubxonasini o'z uyida tashkil etdi[4]. U "Xalq dorilfununi" sho'rasi raisi (1918–1919), Maorif komissarligi vaqf bo'limi boshlig'i, Turkiston maorif komissarligi turk sho'basi mudiri bo'lib ishladi.

1920-yilda Bokuda bo'lib o'tgan "Sharq xalqlari hamkorligi va targ'ibot kengashi" a'zosi bo'ldi. O'sha yili "O. Karimey va Sadriddinxon ishi" bo'yicha hibsga olindi, ammo xalq namoyishi tufayli ozod etildi. 1922-yilda Akademmarkaz raisi, "Milliy ittihad" maxfiy tashkiloti asoschisi va raisi sifatida faoliyat yuritdi. 1924-yilda Ayollar maorif institutida dars berdi. 1925–1926-yillarda "O'zbekcha til saboqligi" darsligini tayyorladi. So'nggi faoliyat yillari (1927–1928) Samarqand muzeyida ishladi.

1929-yil 6-sentabrda "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida GPU tomonidan hibsga olinib, Moskvada 1931-yil 23-aprelda otib o'ldirildi. 1989-yil 16-yanvarda SSSR Oliy Soveti qarori bilan oqlangan[1].

Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining asosiy g'oyalarini "Ozodlik, Tenglik, Adolat" shiorida mujassam etgan[2]. U hayoti davomida quyidagi muhim asarlarni yozgan:

- "Adibi avval" (1907)
- "Adibi us-soniy" (1907)
- "Usuli hisob" (1911)
- "Tarixi qavm turk" (1911)
- "Tajvid" (1911)
- "Havoiy-ji diniya" (1912)
- "Tarixi anbiyo" (1912)
- "Tarixi Islomiya" (1912)
- "Yer yuzi" (1916–1917)



Date: 27th June-2025

Uning xotiralarida rafiqasi va bir qizi bo'lganligi qayd etilgan. 1926 yilda rafiqasi va qizining bevaqt vafot etgani haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, akasi Muslimxonning Muhammad ismli o'g'lini asrab olgani ham tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Xulosa. Jadidchilik harakati O'zbekiston tarixida millatni uyg'otgan, taraqqiyot sari yetaklagan harakat sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Munavvarqori Abdurashidxonov qisqa, ammo sarmazmun umrida xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan, milliy uyg'onish g'oyasini targ'ib qilgan buyuk ma'rifatchi edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, avval qoralanib kelgan jadidlarning nomi oqlana boshladi. Sh.M. Mirziyoyev farmoni bilan Munavvarqori Abdurashidxonov 2021-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi. Bugungi kunda ham uning merosini yodga olish, yosh avlodga yetkazish yo'lida ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2–11-oktabr kunlari "Jadidlar haftaligi" sifatida nishonlanishi bunga misoldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddin Ahmad. *Qizil mustamlaka e'lon qilinmagan urush*. — Katta qirg'in qomusi (1929–1950), 142–144-betlar.
2. *Sharq yulduzi* jurnali, 1992-yil, 5-son.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. *Tanlangan asarlar*. — Toshkent, 2003.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. *Men sendaman*. — Toshkent, 2019.
5. Abdurashidxonov M. *Xotiralarimdan* (Jadidchilik tarixidan lavhalar). — Sharq, Toshkent, 2001, 51-bet.
6. *Munavvarqori Abdurashidxonov*, Yoshlar nashriyot uyi. — Toshkent, 2022.

